



**АҲМАД ИБН ҲАФС КАБИР
БУХОРИЙ МЕРОСИ ВА УНИНГ ИЛҚ
ШАРҚ РЕНЕССАНСИ ҲАМДА
ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ ИЛМИЙ-
НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ
ЯРАТИШДАГИ ЎРНИ ВА
АҲАМИЯТИ**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

ТЎПЛАМИ

Бухорон шариф - 2022



ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА КАФЕДРАСИ
“ШАРҚ ТИЛЛАРИ ТАЪЛИМИ ВА БУХОРИЙЛАР МЕРОСИНИ
ЎРГАНИШ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ”
МАРКАЗИ

“АҲМАД ИБН ҲАФС КАБИР БУХОРИЙ МЕРОСИ
ВА УНИНГ ИЛК ШАРҚ РЕНЕССАНСИ ҲАМДА
ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ
АСОСЛАРИ ЯРАТИШДАГИ ЎРНИ ВА
АҲАМИЯТИ” МАВЗУСИДАГИ

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

ТЎПЛАМИ

2022 ЙИЛ 16-17 ИЮНЬ

Бухорои шариф – 2022

Аҳмад ибн Ҳафс Кабир ал-Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ ренессанси ва Ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти.

Халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. 16-17 июнь 2022 йил.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Бобир Бахриевич НАМОЗОВ – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори (DSc), доцент.

Ҳакима Юсуповна САЛОМОВА – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори.

Абдуҳаким Зиёитдинович ШАРИПОВ – Бухоро давлат университети хузуридаги Педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори (DSc), доцент.

Ҳусен Хайруллоевич ДЖУРАЕВ – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Зубайдилло Ибодиллаевич НАРЗИЕВ – Бухоро давлат университети Сиртки таълим йўналиши декани, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.

Ҳурматли мақола ва тезис муаллифлари!

Тўпламга киритилган мақолаларнинг савияси ва камчиликлари, плагиат учун муаллифларнинг ўзи масъул ҳисобланишини эслатамиз.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил
2 мартдаги 101-Ф-сон фармойишига асосан.

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети илмий техник
кенгашининг 2022 йил _____ сонли мажлиси баёни асосида нашрга
тавсия этилган.

©Ислом тарихи ва манбашунослиги,
фалсафа кафедраси
©БухДУ

HOFIZ TANISH BUXORIY VA UNING “SHARAFNOMAYI SHOHIY” ASARI

Zarnigor G'ulomovna AYMATOVA

Buxoro davlat universitete Tarix va madaniy meros fakulteti

“Jahon tarixi” kafedrasida o'qituvchisi

O'rta Osiyo, Qozog'iston va ular bilan qo'shni bo'lgan xorijiy mamlakatlarning XVI asrdagi tarixi bo'yicha asosiy manbalardan biri “Sharafnomayi shohiy” dir. U ko'pincha “Abdullanova” nomi bilan ham mashhur. Asar Shayboniy Abdullaxon II ningtopshirig'ibilan 1584-1590 yillaroralig'idayozilgan.

Asar muallifi buxorolik mashhur shoir va muarrix Hofiz Tanishibn Mir Muhammad al-Buxoriydir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ayrim qisqa ma'lumotlar “Sharafnomayi shohiy” muqaddimasida, shuningdek, ayrim bir tazkiralarda uchraydi. Ana shu ma'lumotlarga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy va uning otasi Mir Muhammad shayboniyylarga yaqin odamlar bo'lishgan. Masalan, mavlono Mir Muhammad, naqshbandiya tariqatining namoyondalaridan biri, yirikolim Mahdumi A'zam Kosoniy (xoja Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy; 1462-1542)ning hoyoti va faoliyatiga bag'ishlangan “Jome' ul- maqomat” da yozilishicha, shayboniy Ubaydulloxon (1534-1539) saroyida xizmatda bo'lgan; XVI asrning 50- yillari boshida Qashg'arga ketib qolgan va oradan ikki yil o'tib, o'sha yurtda qazoqilgan. Hofiz Tanish Buxoriy 1583- yili Abdullaxon II ning xizmatiga kirgan va umrining oxirigacha shu xonning huzurida voqeanavis bo'lib xizmat qilgan.

Olimning tug'ilganyiliniayrimfaktlarga tayanibaniqlasabo'ladi. “Sharafnomayi shohiy” da quyidagi fikrlarning guvohi bo'lish mumkin: “... Abulg'oziy Abdulla Bahodirxon, tangri taolo uning podshohligini, saltanatini abadiy qilib, farqadondan ham baland qilsin. Movorounnahr mamlakatini zo'r o'ziga bo'ysindirdi va sharq quyoshidek adolat va insonparvarlik soyasini o'sha mamlakatning ilmahlari boshiga tushirdi... Shuonda faqiru haqirning yoshi o'ttiz oltida edi”. Ma'lumki, Abdullaxon Buxoroni 1557- yilda egallagan. Lekin Movorounnahr faqat XVI asrning 80- yillari boshida batamom Abdullaxon qo'liga o'tdi. Bunga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxonning xizmatiga u otasi o'rniga taxtga o'tqazilgan yili - 1583 yili xonning yaqin kishisi Qulbobo Ko'kaltoshning vositachiligi bilan kirgan. Agar u o'shapaytda 36 yoshda bo'lsa, unda Hofiz Tanish Buxoriy 1547- yili tug'ilgan bo'lib chiqadi.

Hofiz Tanish Buxoriy og'ir birzamonda, ya'ni Movorounnahrda feodal tarqoqlik kuchaygan, Abdullaxon II ning mamlakatni birlashtirish va markaziy davlat apparatini mustahkamlash uchun tinimsiz urushlar olib brogan bir zamonda hayot kechirdi. Olim buni manabu iboralarda ifodalaydi: “Hartarafdan teskari shamol esardi. Har bur chakdan fitnagardi osmonga ko'tarilardi. Har kuni jigarni o'rtaydigan olov yoqilardi. Har zamon balo to'foni yuqori ko'tarilardi. Sog'u salomatlik anqodek mazfiylikpardasi ortiga yashiringan edi. Omonlik va to'g'rilik jahondan nafratlanib, intizom ham jamiyat yulduzlari to'dasidagina chegaralanib qolgandi” (“Sharafnomayi shohiy”, 1- jild, 38- bet).

Asarmazmuniga o'tishdan avval shuni ham aytish kerakki, Hofiz Tanish Buxoriy, zamon taqozosiga ko'ra, asarda ma'lum darajada hukmron sinfnig maqsad

va manfaatlarini ifoda qilishga harakat qilgan, xon va uning atrofidagi aslzodalarni, boylar va no`yonlarni ko`klarga ko`tarib maqtagan. Mehnatkash xalqning hol-ahvoli bo`lsa ko`p o`rinlarda soyada qolgan. Lekin asar faktik materialga boy, voqealar ozmi ko`pmi obqektiv yoritilgan, ayrim o`rinlarda xonlar, sultonlar va amirlarning ba`zi xislati va xarakteri ham ochibberilgan.

“Sharafnomayi shohiy” yirik shoh asar bo`lib, uni Juvayniyning “Tarixi Jahon kushoy va Rashididdinning “Jome` ut- tavorix” asarlari qatoriga qo`ysa arziydi. Sharqshunos olimlar tomonidan mazkur asarga quyidagicha ta`rif berilgan:

“Sharafnomayi shohiy” ustida qancha ko`p ishlangan, unda o`rganish lozim bo`lgan shuncha ko`p faktlar ochiladi. Shuning uchun ham bu asar ko`p vaqtlardan buyon sharqshun osolimlarning diqqat- e`tiborini o`ziga tortib kelmoqda”.

“Sharafnomayi shohiy” saj (qofiyalashgan nasr) bilan yozilgan, tili va uslubi birmuncha og`ir. Olim turli o`xshatish va istioralardan foydalangan: “... sodiqlik ipini tugib, uni o`ziga bog`ladi” (uylandi demoqchi). “... bog`urog` sahni yeti xil ranglik libos kiyib, tog`u sahroning sirtichiniy naqshlik xonaning keltiradigan bo`lganda...” (ertabahorda). “... uning buyuklik va ulug`lik oftobi maxfiy pardasiga yashirindi; umid va orzulari falokat oftobining shahodat mag`ribiga botdi” (o`ldidemoqchi).

Bundan tashqari, asarda oyat, hadis, turli arab iboralari (maqollar) ham ko`p. Hofiz Tanish hamma joyda voqealarni nasr va nazm bilan bergan. She`rlar(to`rtliklar, masnaviyalar, qit`alar, marsiyalar) ning ko`pchiligi muallifning qalamiga mansub bo`lib, zo`r mahorat va san`at bilan yozilgan. Bulardan ayrimlari boshqa shoirlar, xususan Mushfiqiyga tegishlidir. Muallif asarni yozishda xon saroyida yuritilgan maxsus kundaliklar, ishonchli va voqealarning shohidi bo`lgan kishilar og`zidan yozib olingan ma`lumotlardan foydalangan. Asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada Abdullaxonning naslunasabi, uning o`sha zamonning yirik ruhoniylaridan xoja Muhammad Islomga muridligi, Chingizxon, Jo`jixon, Muhammad Shayboniyxon haqida, shuningdek, Movorounnahrning XV asroxiriva XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida qisqa ma`lumotlar keltiriladi. Birinchi maqola 1557-1583 yillar; ikkinchi maqola 1583-1588 yillar oralig`ida bo`lib o`tgan voqealar tafsilotiga bag`ishlanadi. “Sharafnomayi shohiy”ning qo`lyozma nusxalari ko`p. Uning yaxshi nusxalari Toshkent, Sankt-Peterburg, Boku, Qozonva Dushanbe kutubxonalarida, shuningdek, Angliya, Hindiston kutubxonalarida saqlanadi.

Yurtimiz tarixiga doir bukabi asarlar ko`hna tarix charxpalagida toblangan xalqimizning tom ma`nodagi bebaho ma`naviy merosidir. Ularni o`rganish va bugungi kun talabiga monand hayotga tadbiiq etish, har birimizning oldimizda turgan asosiy vazifalarimizdan biridir.

Равшанова Г.М.	Ёшлар онгида умуминсоний қадриятларни шакллантиришда замонавий таълим-тарбия ва ахборот технологияларнинг ўрни.....	456
Дехқонов Б.Б.	Тасаввуф таълимотининг инсонда бағрикенгликни шакллантиришда тутган ўрни	458
Шарифова Г.Х.	Духовный мир Джалаладдина Руми.....	460
Izzatullayeva G.N.	Abu Ali Ibn Sina's Philosophical Views As Heritage Of The World	464
Urazmetov M.T.	The Religious-Philosophical Concept Of Suleyman Bakirgani	468
Шарипов А.З.	Янги Ўзбекистон: мамлакатнинг маънавий қиёфасини шакллантириш ва маърифий жамият барпо этишининг ижтимоий-фалсафий хусусиятларига доир мулоҳазалар.....	471
Қўшшаева Н.М.	Мухаммад Назар Болтаев	476
Шокиров М.Р.	Тарихий тадқиқотларда тарихийлик ва мантиқийлик методларининг аҳамияти.....	479
Ҳайдарова Ҳ.Б.	Абу Ҳафс Кабир Бухорийнинг илоҳиёт илмига қўшган ҳиссаси.....	482
Наимов И. Жалилов А.	Аҳмад Дониш илмий меросида мусиқа илми ва ундаги ислохотчилик мадҳи.....	483
Aumatova Z.G'.	Hofiz Tanish Buxoriy va uning "SHarafnomayi shohiy" asari.....	488